

Bo‘lim o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 293-sonli qarorida belgilangan maqsad va vazifalar asosida olib boradi.

Bo‘limning asosiy vazifasi xalq ta’limi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar, pedagog xodimlar attestatsiyasini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek pedagog kadrlar attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ta’lim tizimi rahbar organlari va mahalliy hokimliklar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iborat.

Bo‘lim tomonidan amalga oshirilgan ishlar

2012 yil mart-may oylarida xalq ta’limi tizimidagi davlat ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish va ularga malaka toifalari berish uchun 14 ta (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) Muvofiqlashtiruvchi, 195 ta tuman (shahar), 9685 ta ta’lim muassasalari attestatsiya komissiyalari tomonidan tizimidagi pedagog kadrlar attestatsiyadan o‘tkazildi va ularga tegishli malaka toifalari berildi.

2012 yil dekabr-2013 yil yanvar oylarida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalari pedagog xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish ishlari amaldagi me`yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, manfaatdor vazirlik va idoralarning tegishli Qo‘shma qarori bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta hududiy boshqarmalar huzurida attestatsiya komissiyalari tuzildi. Hududiy boshqarmalarda tashkil etilgan attestatsiya komissiyalari o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan 20482 nafar pedagog xodimlarni malaka sinovlarini o‘tkazdi va tegishli lavozim va malaka toifalarini berish uchun hududiy boshqarmalar huzurida tuzilgan attestatsiya komissiyalariga taqdim etildi.

Bo‘lim faoliyatida amal qiluvchi me`yoriy-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 293-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrdagi “Xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 275-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 18 yanvarda 1540-sin bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Rahbar va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish va ularga malaka toifalari berish tartibi to‘g‘risida Nizom”;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagи “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 165-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 29 avgustda 1847-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda ularga malaka toifalari berish tartibi to‘g‘risida Nizom”.